

OGAHY G'AZALLARIDA MAVZU KO'LAMINING RANG-BARANGLIGI

Dilorom Qo'ziyeva

*Xorazm viloyati, Urganch shahar
18-sonli umumta'lim maktabning
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

El nazariga tushgan, so'zlari olam-olam ma'no va mazmunga ega bo'lgan, shoirlar ichida o'z yozish uslubi, bayon qilish mahoratiga ega bo'lgan Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yaratilgan qanchadan-qancha lirik asarlar xalq dilidan chuqur joy olgan.

Shoirning barcha lirik she'rlari kuyga solinib, ohanglar jo'rligida mukammal va go'zal qalblarga huzur bag'ishlovchi ohanrabodek kirib bordi.

Shoirning ijodiyotida insonning murakkab his-tuyg'ulari va ruhiy kechinmalari go'zal tasvirlar ila ifodalanganini ko'ramiz. Shoir insoniyatning orzu-niyatlari, istak va intilishlarini, hayot voqea-hodisalalariga munosabatini, inson go'zalligini san'atkorona chuqur va nozik tuyg'ular asosida badiiy ifodalaydi. Ijtimoiy hayot masalalarining turli-tuman qirralarini mavzu qilib tanlay olgan. Pokiza sevish, hijron alamlari, vafo, do'stlik, mehr-shavqat, vatanga muhabbat va eng asosiysi insonni sevish, inson hayoti mohiyatining mezoni, mazmuni, kishilarning jamiyatdagi munosabatlari ijobiy va salbiy fazilatlarini mohirona ifodalaydi. Bir so'z bilan aytganda Ogahiy kuchli fasohat sohibidir. Chunki uning lirikasida mavzu ko'lami juda keng. Bu mavzularning rang-barangligi va ko'lamdorligi shoirning yuksak iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Shoir lirikasida ishq va oshiqlik, muhabbat, nafsni kishanlash, so'z qadrini anglash, ilm-u irfon, tarbiya masalasi yetakchi o'rinda turadi. Ogahiyning quyidagi tarbiya to'g'risidagi ruboiysi fikrimizning isbotidir:

Badtiynat ulus bum kibi shumdurur,
Tarbiyat angakim etsa mazmundurur.
Zaqqum niholi ichsa gar obihayot,
Ohir berajak mevasi zaqqumdurur⁶⁶.

Bu o'rinda shoir ulusning tarbiyasi hayotning mazmuni ekanligini aytadi. Shu bilan birga do'zaxdagi daraxtning nomini keltiradi. Bu daraxtning nomi zaqqum daraxtidir. Zaqqum niholini obihayot bilan sug'orsang ham beradigan mevasi zaqqum ya'ni zaharli bo'ladi demoqchi. Albatta, xalqimiz orasida "Olmaning tagiga olma tushadi", - deb bejizga aytilmagan. Ogahiy she'riyati o'zbek poeziyasida bizgacha meros bo'lib kelgan xazinasining eng qadrli qismi, desak mubolag'a bo'lmas. So'zning ifodasi, ta'siri, uning bu qudrati shaxsga o'lmas ruh baxsh etgandir. She'riyatda shakl-shamoyil emas, mazmun ustuvor ekanligini ulug' shoirlarning barchasi o'z ash'orlarida alohida ifoda qilishgan. Jumladan, Ogahiy bu xususida shunday satrlarini bitadi:

⁶⁶Muhammad Rizo Erniyozbeko'g'li Ogahiy. Tavizu-l-oshiqin. Mumtozso'z, 2014. 439-bet.

Ogahiy nazmin aro dilso`z shash bo`lmasa,
Soda ash`oring bila devonu daftardin ne naf.

Yozuvchi, shoir, olim ahli insonning xilma-xil, bir- biridan tafovutlanadigan guruhlardan tarkib topganligini, o`zaro jismoniy, ijtimoiy jihatdan farqlanishlarini o`z asarlarida bayon qiladilar. Insonning psixologik, irsiy tuzilishi, ularning ijtimoiy muhitga moslashish qonuniyatlarining nozik chizgilar asosida to`lalgicha bayon qilinadi.

Ogahiy xalqlar va millatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish davrida tilning, udumning, qadryatlar va inson ruhiyatining ko`p qirraligini bir-biridan farq qiluvchi holatlar va vaziyatlar asnosida insonga ta`sir qiluvchi ijtimoiy, madaniy, tarixiy va hududiy omillarni beqiyos rolini ehtiyotkorlik bilan qalamga tushiradi.

Ijtimoiy hayotda sodir bo`ladigan barcha hodisalar insonning ma`naviy qiyofasiga, xarakteriga, oilaviy munosabatiga, turmush tarziga, guruh xulq-atvoriga kuchli ta`sir o`tkazishni quyidagi misralarda bayon qilinadi:

Qadam aylabon ilm yo`lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh.
Ne tunlar menga xobe rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog`at edi.

Bu misralar inson xarakteristikasi, uning ta`bi faolligi, o`zligini anglashning yangi qirralarini shakllantirishga olib keladi. Shoir asarlarining deyarli barchasi xalqchil va samimiy, dilkash va jozibali shu tufayli inson ruhiy holati bo`lmish ilhomlanish hissi darajasida ifodalaydi. Inson-insonga mushtoqlik, sog`inish, qo`msash va bog`liqlikning nozik tomonlarini rang-barang uslubiy orqali ifodalaydi.

Shoir kongil ko`zgusi sifatida til va so`zni e`tirof etadi. Shuningdek, so`zlashda befoyda gaplarni ishlatmaslik, hech qanday ma`ni bo`lmagan so`zlar uchun sarf qilmaslikni ta`kidlaydi. Tildan chiqqan har qanday behuda so`zlar tufayli umrning bekorga sarflanishini, umr o`tgandan keyin esa nihoyatda ko`p zikr bilan mashg`ul bo`lsa ham uning shavqini tuyolmasligini ta`kidlab quyidagi misralarni yozadi:

Til so`zi behudalik sarfi o`ldi umrlar,
Emdi afzun ila zikri nek shavqini har dam ango⁶⁷.

Til shunday xilqatki, uni zikr bilan mashg`ul qilmoq, sukut bilan sug`ormoq, taqvo bilan mustahkamlamoq lozimdir. Shundagina, til va dil birligi bir qalbda mujassamlashadi, huzur topadi. Ezgulik va yovuzlik hamisha qarama-qarshi turgani kabi tilga, so`zga ziyon yetkazuvchi ofatlar ham yonma-yondir. "Abu Tolib Makkiy gunohi kabiralarni o`n yettita turini sanab, bu sanoqni xabarlardan va Ibn abbos, Ibn Mas`ud, Ibn Umarlarning so`zlaridan xulosa qilib aytadi: "Katta gunohning to`rttasi tilga tegishli:

- yolg`on guvohlik berish;
- pokdomon ayolni badnom qilish;

⁶⁷ Muhammad Rizo Ogahiy. Ta`vizu-l-oshiqin. Toshkent. Mumtozso`z, 2014. – 560b. 27-bet
1653

-g'amus qasam, ya'ni, u tufayli botil haqqa, haq botilga aylanadi yoki bir mo'minning moli nohak tortib olinadi, garchi u mol arzimas misvok bo'lsa ham. Bu qasam jahannamga tortuvchi bo'lgani uchun ham "g'amus" deb nomlanadi;

-sehr.

Insonni va boshqa jismlardan asl xilqatidan o'zgartirib ko'rsatadigan har bir gap sehrdir⁶⁸." Keltirilgan fikrlarga hamohang tarzda ustoz Ogahiyning yuqoridagi g'azali ham so'z so'zlashda e'tiborli bo'lishni kasb qilishni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, biz mazkur tadqiqot ishimizda hazrat Ogahiyning g'azallarida mavzularning rang-barang ekanligiga guvoh bo'ldik. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shoirning til va tarbiya masalasiga alohida ahamiyat qaratganining guvohi bo'ldik. So'z qadri shoir ijodining maslagiga aylanganiga ishonch hosil qildik. Keyingi tadqiqot ishlarimizda ham shoir g'azallari badiiyatini mavzu-mohiyatini yanada kengroq yoritib berishga harakat qilamiz.

⁶⁸ Abu Homid G'azzoliy. Tavba kitobi. Toshkent. Movarounnahr, 2003-148bet. 41-bet.